


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


1/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

1/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 1, yanvar

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Астанова Г.А.	“Минг бир кеча” ҳикоятларида ҳинд, эрон руҳияти ифодаси	3
Babayev M.T.	Mavlono Jaloliddin Rumi (Balxiy)ning “Masnaviyi ma’naviy” asaridagi masallarda ilon obrazi	8
Ganiyeva O.X.	J.Styuartning “Another april” hikoyasidagi XX asr AQSh realistik hikoyachiligi xususiyatlari tasviri	14
Karimova D.H., Narziyeva D.R.	Aka-uka Grimm ertaklarining tarjima variantlari xususida (“Bir xumcha shovla” ertagi tarjimasi misolida)	18
Ubaydullayeva R.A.	“Ro‘yo yoxud g‘ulistonga safar” romanida ramziylik va uning ifodalanishi	23
Fayziyeva K.A.	“Muhammad hayoti” romanida badiiylik tasviri	29
Bekova N.J., Faxriyeva D.T.	Chingiz Aytmatov asarlarida ayol qismati tahlili (“Alvido, gulsari”, “Birinchi muallim” qissalari asosida)	33
Xudayberdiyeva M.A.	Fitratning adabiy tur va janrlarga munosabati	37
Qodirova N.S.	Adabiy tanqidchilikda davr uslubi masalasi (jadid tanqidchiligi misolida)	41
Dusanova M.X.	Social And Cultural Context In 20th Century English Literature	48
Naimova A.M.	Mifopeya janr xususiyatlari hamda uning badiiy nasrda formatlashuvi	52
Zayniyeva Y.F.	“Boburnoma” dagi izofiy birikmali hayvonot va nabobot nomlarining inglizcha tarjimalari tahlili	57
Gadoeva M.I., Rahmonova J.M.	Sharq va g‘arb madaniyatlarida “yaxshilik” tushunchasi	62
Sa’dullayeva Sh.A.	Rashod Nuri Guntekin romanlarida o‘qituvchilar obrazi	67
Sabirova G.B.	Ota timsolining oilaviy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyati	71
Nazarova G.P., Sirojeva N.S.	Amerika immigrant janri tarixi	77
Usmonova N.S.	Tez aytish turlari (fransuz tez aytishlari misolida)	82
Shukurova S.O.	An examination of sociological and psychological perspectives on suicide through the works of Émile Durkheim and Zygmunt Bauman	88
Kilicheva M.R.	XIX asr ingliz she’riyatida sharq va islom madaniyati talqini	93
Kodirova S.A.	Ayrim maqollar evolyutsiyasida “Zarbulmasal” maqollarining o‘rni va ahamiyati	99
Рашидова Ф.Р.	Художественный психологизм в творчестве женщин-писательниц викторианской литературы	103
Ахмедова К.А.	Ключевые особенности детских игр узбекского народа	108
Рахимова Н.К.	Баҳоуддин Нақшбанд “Авроди шариф”идаги тасаввуф терминлари таҳлили	112
Нармуратов И.,	Максим Горький – великий представитель	116

Йўлдошева С.	реалистической литературы	
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Yaxshiyeva Z.R.	O'zbek va jahon temurshunosligi rivojida yozma manbalar tadqiqi	121
“NAVOIY GULSHANI”		
To'rayeva U.R.	Interpretation of enlightenment in alisher navoi's work	126
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Раупов С.С.	Жадидлар мероси ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамият пойдевори	129
Sultanov T.R.	Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning ayrim masalalari	134
Рузимуродов Б.Р.	Политические аспекты использования технологий блокчейн для обеспечения прозрачности государственных закупок	139
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Тўраева Г.Б.	Ўзбекистон халқлари этник тарихини ўрганишда Ольга Александровна Сухарева тадқиқотларининг илмий-назарий аҳамияти	146
Abdulhayaeva Z.Sh., Nishanova D.K.	Abu Rayhon Beruniy asarlarida dinlarining yoritilishi	153
Radjabova N.M.	Abdurauf Fitratning musiqa ta'limi rivoji yo'lidagi beqiyos xizmatlari	164
Raxmatov M.M.	O'zbekiston bojxona ishi tarixiga bir nazar	168
Алижонов А.Т.	Жаҳонда ўқотар қуролларни яратилиш тарихи	173
Haydarova H.B.	Diniy bag'rikenglik – millatlararo totuvlikning garovidir	181
Hayotov F.U.	Buxoro Kalobodiy shayxlari bayoni (Abu Bakr Kalobodiy misolida)	186
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Sa'dullayev O.T.	Korxonalar daromadini oshirishda ta'sir qiluvchi risklarni kamaytirish yo'llari	192
Raximov A.X.	Atrof-muhit barqarorligida yashil iqtisodiyotning roli	198
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
To'xtamishova G.M.	Interfaol intellektga asoslangan elektron platforma orqali elementar matematika o'qitish tizimini boshqarish	204

MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY(BALXIY)NING "MASNAVIYI MA'NAVIY" ASARIDAGI MASALLARDA ILON OBRAZI

Babayev Maxmud Tashpulatovich,

Buxoro davlat universiteti nemis filologiyasi kafedrası o'qituvchisi
m.t.babae@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mavlono Jaloliddin Rumi(Balxiy)ning «Masnaviyi Ma'naviy» asarida masallarning qo'llanilishi, ushbu masallarda salbiy obraz-ilon obrazining turli ramzlarda kelishini ochishga harakat qilingan. Mohiyatan har bir insonda ajdahodek nafs bor. Shaxsning bu nafsga befarqligi, bu ruh odamda ilhomlantiradigan istaklarga qarshilik ko'rsatishi ajdahoni uyquga soladi, lekin odamlar uning nafsiga bo'ysunsa u jonlanadi. Qayta jonlangan ajdahoning birinchi qurboni uni uyg'otgan, ajdahoga mehr ko'rsatgan kishi o'z mehrining qurboniga aylanadi. "Masnaviyi Ma'naviy"dagi ilonning eng muhim ifodasi jozibadorlik bo'lib, u imkoniyatlarga erishish bilan talabchanlikka, hukmronlikka aylanadi, odamni yo'qlik qa'riga tortadi. Oddiy odamlar bu jonzo'tning issiq nafasiga qarshi tura olmaydi. Faqat ma'naviy kamolotga erishgan shaxslargina bu baloni yengish imkoniga ega.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Rumi, "Masnaviyi Ma'naviy" asari, fors adabiyoti, masallar, hikoyalar, antropomorfizm, majoziy iboralar, inson, ilon, ajdaho.

ОБРАЗ ЗМЕИ В БАСНЯХ МАВЛАНО ДЖАЛОЛИДДИНА РУМИ (БАЛХИ) «МАСНАВИЙИ МА'НАВИ»

Аннотация. В данной статье рассматривается использование притч в произведении «Маснави Ма'нави» Мавланы Джалалуддина Руми (Балхи), а также использование в этих притчах негативного образа-змеи в различных символах. По сути, у каждого есть дух дракона. Безразличие человека к этому духу, сопротивление желаниям, которые он внушает человеку, усыпляют дракона, но когда люди подчиняются его похоти, он оживает. Первой жертвой реанимированного дракона становится человек, разбудивший его, проявивший любовь к дракону, становится жертвой собственной любви. Важнейшим проявлением змеи в «Маснави Ма'нави» является привлекательность, которая при достижении возможностей переходит в требовательность и доминирование, и тянет человека в глубины небытия. Обычные люди не могут устоять перед горячим дыханием этого существа. Только духовно зрелые люди могут победить эту напасть.

Ключевые слова: Джалалуддин Руми, «Маснави Ма'нави», персидская литература, притчи, рассказы, антропоморфизм, образные выражения, человек, змея, дракон.

THE IMAGE OF A SNAKE IN THE FABLES OF MAWLANA JALALUDDIN RUMI (BALHI) "MASNAVIYI MA'NAVI"

Abstract. This article examines the use of parables in the work "Masnavi Ma'navi" by Mawlana Jalaluddin Rumi (Balkhi), as well as the use of a negative image of a snake in these parables in various symbols. In essence, everyone has a dragon spirit. A person's indifference to this spirit, resistance to the desires that it inspires in a person, lull the dragon, but when people submit to its lust, it comes to life. The first victim of the reanimated dragon is a person who awakened it, showed love for the dragon, becomes a victim of his own love. The most important manifestation of the snake in "Masnavi Ma'navi" is attractiveness, which, upon achieving opportunities, turns into exactingness and dominance, and pulls a person into the depths of oblivion. Ordinary people cannot resist the hot breath of this creature. Only spiritually mature people can overcome this misfortune.

Keywords: Jalaluddin Rumi, "Masnavi Ma'navi", Persian literature, parables, stories, anthropomorphism, figurative expressions, man, snake, dragon.

Kirish. Jahon adabiyotining buyuk siymosi Mavlono Jaloliddin Rumiyning shoh asari- «Masnaviyi Ma'naviy» asari ma'nolari mohiyatiga ko'ra so'fiylik qomusi, insoniyat tomonidan yaratilgan eng shoh asar namunasidir. 25 ming 632 (boshqa bir manbaga ko'ra 26 ming 840) baytli, olti daftardan iborat «Masnaviyi Ma'naviy» asari shoir va tarjimon Sulaymon Rahmon o'zining «Rumi va uning durdona asari «Ma'naviy Masnaviy»ning o'zbekcha tarjimasiga oid» maqolasida ta'kidlaganidek, «Ma'naviy masnaviy» mohiyatan

Qur'oni karimning o'ziga xos she'riy tafsiri va hadisi shariflarning sharhidan, talqinidan iboratdir. «Masnaviy»da Qur'on oyatlaridan 760 marta iqtibos olingan, 745 o'rinda 703 hadisdan foydalanilgan. Muxtasar aytsak, «Ma'naviy masnaviy»ning botiniy mohiyati shahodat kalimasining – ya'ni «La ilaha illalloh»ning turli-tuman hikoyatlar, masallar, rivoyatlar, hikmatlar zamiriga singdirilgan zikrlari yig'indisidan iboratdir; uning bosh maqsadi – ana shu hikoyatlar, latifalar, masallar, rivoyatlar, hikmatlar vositasida tavhidni – Allohning yagonaligini, sherigi yo'qligini zikr etish va tasdiqlashdir. Yanayam to'g'rirog'i, bu asar mavlono Rumiyning buyuk zot Allohning yakkayu yagona ekanligini tasdiqlab qilgan zikrlari, Uning Zoti, Sifoti va Qudrati haqidagi fikrlari, Uning bani Odamga bergan ne'matlari uchun Unga astoydil shukrlarining badiiy ifodasidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqolada Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi Ma'naviy” asaridagi masallarda ilon obrazining yoritilishini tahlil qilishga urindik. Maqola yozish jarayonida Mavlono Jaloliddin Rumiyning R.Nikolson matni va boshqa nusxalar asosida tuzilgan, Dushanbe shahridagi Adib nashriyotida 2013- yilda chop etilgan tojikcha *Мавлоно Ҷалолуддин Муҳаммади Балхӣ Маснавиӣ маънавӣ: Дафтари аввал ва дувум/ Дафтари сеум ва чорум/ Дафтари панҷум ва шашум* kitoblaridan, forsiydan o'zbek tiliga Jamol Kamol tarjimasidagi Mavlono Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. Birinchi-oltinchi kitoblaridan hamda olmon tarjimoni Otto Ho'shle tomonidan fors tilidan nemis tiliga qilingan tarjima asosida chop etilgan Dschaläl ad-Din Rumi. Masnawi. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Erstes Band. Buch I-III. Aus dem persischen von Otto Höschle. Chalice Verlag, Xanten, 2020 va Dschaläl ad-Din Rumi. Masnawi. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Zweites Band. Buch IV-VI. Aus dem persischen von Otto Höschle. Chalice Verlag, Xanten, 2021 kitoblaridan foydalanildi.

“Masnaviyi Ma'naviy” asaridagi masallarda ijobiy rollarni tasvirlashda bo'lgani salbiy obrazdagi qahramonlarni tasvirlashda ham xuddi shunday tamoyillar mavjud. Bu erda faunaning o'sha vakillari antropomorfizatsiya jarayonlariga kirishadi, ular boshida mifologik, ertak va keyinchalik adabiy salbiy belgilar turini shakllantiradi. Aytish joizki, “Masnaviyi Ma'naviy”da bu turdagi uslub ancha keng tarqalgan. Buning sababi Jaloliddin Rumi ijodining o'z pafosidadir: shoirning faqat bir maqsadi bor – odamni gunohi, uni halok qilgan birinchi gunohi uchun haydalgan joyiga, ya'ni jannatga qaytarish. Binobarin, shoir uchun notinch qalbida, eng avvalo, uning poklanishiga xalaqit beradigan insoniy illatlar nishon edi. Shuning uchun, zulmat kuchlariga xizmat qiladigan yirtqich hayvonlar ko'proq edi. Bu insonning ruhiy ozod bo'lish uchun abadiy kurashining belgisi bo'lishi mumkin. Aytilganlarning tasdig'i sifatida shuni ta'kidlaymizki, Jaloliddin Rumi o'z asarida ajdaho so'zi va uning forsha-arabcha sinonimini juda ko'p marta tilga olgan.

Buyuk adib Firdavsiy tomonidan to'plangan eroniyning afsona va ertak, rivoyat va yirik dostonlarida, o'tmish so'z ustalarining she'riy devonlarida va ayniqsa, ko'plab xalq ertaklari – dostonlarida olov nafasidan odamlar vahimaga tushadigan, yovuzlikning timsoli, bir necha boshli qanotli mavjudot- ajdaho (ilon)dir. Eron mifologiyasida bu jonot ramz bilan belgilangan. Angra Manyu (Axriman), sof, nurli xudo Ahura Mazdaning qudratli antipodi. Shuning uchun, mashhur fikrda, har qanday yirtqich hayvon va qudratli mavjudot ajdahoga o'xshatiladi. “Masnaviyi Ma'naviy”da “ajdaho” va “ilon” so'zlari tan (II daftar, 2293-2295 baytlar), buyuklik (II daftar, 1864-1866 baytlar), botillik (IV daftar, 2357-2359 baytlar), xavfli va badbaxt odam (IV daftar, 610 bayt), baxtsizlik (I daftar, 920-921 baytlar), g'azab va qonxo'rlik (I daftar, 1175 bayt), ochko'zlik (I daftar, 954-955 baytlar), axloqsizlik va yovuzlik (I daftar, 2293 bayt) va nihoyat, ertakdagi mavjudot (IV daftar, 2357 bayt) obrazlarida keladi.

Нест касбе аз таваккул хубтар,
Чист аз таслим худ маҳбубтар?
Бас гурезанд аз бало сўйи бало,
Бас ҷаҳанд аз мор сўйи аждаҳо. (I daftar, 920-921 baytlar)

Lek tavakkaldek kasbi xo'b qani?
Yoki taslimdek yana mahbub qani?
Bas, balodin qochdilar — so'yi balo,
Bas, ilon quvganda — so'yi ajdaho. (I daftar, 920-921 baytlar)

Fleiß kann nicht besser sein als Gottvertrauen.
Was liebt Gott mehr, als dass wir Ihm uns schenken?
So mancher flieht von Unheil hin zu Unheil,
entkommen der Schlange und gerät zum Drachen. (I daftar, 916-917 baytlar)

Сад ҳазорон қарн з-оғози ҷаҳон
Ҳамчу аждарҳо гушода сад даҳон.

Макрҳо карданд он доногурӯҳ,
Ки зи бун барканда шуд з-он макр кӯх. (I daftar, 954-955 baytlar)

Necha yuz minglab asrlarkim jahon —
Sahnida o‘n boshli ajdarhosimon
Makru hiyla etdi ul dono guruh,
Tog‘ni ham tikka qo‘pordi, otdi ul. (I daftar, 954-955 baytlar)

Seit Anbeginn der Welt rissen Millionen
Geschlechter hundert Mäuler auf wie Drachen.
Und schlaue Cliques heckten Pläne aus,
die selbst die Berge aus dem Boden hoben. (I daftar, 950-951 baytlar)

Гуфт: «Бишнава, гар набошам чойи лутф,
Сар ниҳодам пеши аждарҳои унф. (I daftar, 1175 bayt)

Dedi: tingla, gar so‘zim yolg‘on esa,
Rozimen, hattoki ajdarho yesa. (I daftar, 1175 bayt)

„Hör zu, verdien ich deine Wohltat nicht,
geb ich den Kopf dem Drachen der Gewalt hin. (I daftar, 1167 bayt)

Зери девори бадан ганҷ аст ё
Хонаи мор асту мӯру аждаҳо? (I daftar, 2293 bayt)

Tan-devor ortida pinhon ganjmi yo?
Ul chumolidir, ilonmu, ajdaho? (I daftar, 2293 bayt)

Dann zeigt sich Birgt die Mauer seines Leibs
Wohl Schätze oder Schlangenbrut und Drachen? (I daftar, 2281 bayt)

В-аз заифӣ ақли ту, эй харбаҳо!
Ин хари пажмурда гаштаст аждаҳо.
Гар зи Исо гаштаӣ ранҷурдил,
Ҳам аз ӯ сикҳат расад, ўро маҳил.
Чунӣ, эй Исои исодам, зи ранҷ?
Ки набуд андар ҷаҳон бе мор ганҷ. (II daftar, 1864-1866 baytlar)

Ul zaif aqlindin, ey eshshakbaho,
Bul eshak pajmurda bo‘lmish ajdaho.
Sen esang Iso tufayli xastadil,
Ul o‘zi sihat berur, sen qo‘ymagil.
Ey nechukdirsən, Isoyi serranj,
Bul jahonda ajdahosiz bormu ganj. (II daftar, 1864-1866 baytlar)

Jedoch durch deinen schwachen Geist, du Langohr,
wurd‘ dieser welke Esel zum Drachen.
Bist du durch Jesus herzenskrank geworden,
wirst du durch ihn gesund, verlass ihn nicht!
Wie geht‘s dir in der Qual, oh Heiler Jesus,
wo‘s doch noch nie ‘nen Schatz gab ohne Schlange? (II daftar, 1860-1863 baytlar)

Аждаҳо гашта-ст он мори сиёҳ,
Он ки кирме буд афтода ба роҳ.
Аждаҳову мор андар дасти ту
Шуд асо, эй ҷони Мӯсо, масти ту.
Ҳукми «хузҳо, ло тахаф» додат Худо,

To ba дастат аждаҳо гардад асо. (II daftar, 2293-2295 baytlar)

Boshda qurt erdi, ilon erdi, qaro,
Yo'lga tushgach, bo'ldi devu ajdaho.
Ajdaho ul bir asodir, bas, senga,
Ey Muso, joni asiru mast senga.
Hukmi «Xuzho, lo taxaf» bermish Xudo,
To qo'lingda ajdaho bo'lgan aso. (II daftar, 2293-2295 baytlar)

Zum Drachen wurde jene schwache Schlange,
der Wurm, der auf den Weg gefallen ist.
In deiner Hand, du von der Seele Moses
Berauschter, wird der Drachenwurm zum Stab.
Gott gab dir den Befehl: „Nimm, fürcht dich nicht!“,
damit in deiner Hand der Drache Stab wird. (II daftar, 2285-2287 baytlar)

Ту ба нури ў ҳамерав дар амон
Дар миёни аждаҳову каядумон. (IV daftar, 610 bayt)

Sen o'shal nur birla yurgaysen hamon,
Ajdaho, kajdumlar ichra sog'-omon. (IV daftar, 610 bayt)

In seinem Licht geh stets in Sicherheit
Inmitten von Skorpionen und von Drachen! (IV daftar, 609 bayt)

Баски худро кардаи бандай ҳаво,
Кирмакери кардаи ту аждаҳо.
Аждаҳоро аждаҳо овардаам,
То ба ислоҳ оварам ман дам ба дам.
То дами он аз дами ин бишканад,
Мори ман он аждаҳоро барканад. (IV daftar, 2357-2359 baytlar)

Chun o'zingni aylading bandi havo,
Bo'ldi ul qurting baloyi ajdaho.
Ajdahoga ajdahoni shayladim,
Bir nafasda yamlamoqni o'yladim.
Bir nafasda ko'zlarini namlagay,
Ajdaringni aylading yamlagay. (IV daftar, 2357-2359 baytlar)

Du machtest dich zum Sklaven der Gelüste,
machtest ein Würmchen so zu einem Drachen,
zu diesem Drachen bring ich meinen Drachen,
damit sein Atem den des deinen bessert,
der eine Hauch den anderen besiegt
und meine Schlange jenen Drachen tötet. (IV daftar, 2356-2358 baytlar)

“Masnaviyi Ma'naviy”dagi ilonning eng muhim ifodasi jozibadorlik bo'lib, u imkoniyatlarga erishish bilan talabchanlikka, hukmronlikka aylanadi, odamni yo'qlik qa'riga tortadi. Oddiy odamlar bu jonotning issiq nafasiga qarshi tura olmaydi. Faqat ma'naviy kamolotga erishgan shaxslargina bu baloni yengish imkoniga ega.

Shoir “Masnaviyi Ma'naviy”da biz quyida sanab o'tadigan masallarning butun turkumida ilon obrazini “antropomorfizatsiya” qilgan:

1- “Muso alayhissalomning tayog'i ilonga aylanib, Fir'avn sehrgarlarining ilonlarini yutib yuborishi haqidagi hikoya” (IV daftar, 2538 bayt);

2- “*Bir amir og'ziga ilon kirgan kimsani ranjitgani*” (II daftar, 1882-1935 baytlar);

3- "Mustafo(s.a.v)ning etigini burgut olib uchgani va uni havoda to'nkarganda ichidan qora ilon tushgani"; (III daftar, 3239-3255 baytlar)

4- "Anbiyo alayhissalomlarning yana javob berishgani" (III daftar, 2956-2983 baytlar);

5- "Bir ilonchi boshqa bir ilonchining ilonini o'g'irlagani" (II daftar, 135-140 baytlar)

Natijalar. Jaloliddin Rumiy axloqiy falsafasining mazmun-mohiyatini ilon yoki ajdaho obrazi orqali anglash mumkin bo'lgan "bir ilonchi sovuqda muzlagan ajdahoni o'lgan deb o'ylab, Bag'dodga keltirgani" hikoyasida tanlangan tizim bo'yicha tahlil qilish uchun mos namuna sifatida tanlangan.

Aniqlik kiritish kerakki, qissada "mor" (ilon) va "ajdaho" so'zlari doimiy ravishda aralashib ketgan bo'lib, Jaloliddin Rumiy ularni sinonim deb hisoblagan. Hikoyaning syujeti g'oyaviy-tematik mazmunini ifodalash uchun nihoyatda muhim bo'lganligi uchun biz bu yerda hikoyaning syujetini taqdim etamiz, u quyidagicha ko'rinishga ega: "Bir ilon ovchisi qotib qolgan ajdahoni ko'tarib, uni o'lik deb adashtiribdi. Bag'dodga olib ketdi. Issiqda ajdaho jonlanib, odamlarga hujum qildi. U chiqaradigan olov shahar binolarini yondira boshladi. Nihoyat, ilon ovchining o'zini yutadi" (III daftar, 976-1066 baytlar). Hikoya qahramonlari: ilon ovchisi o'z qilmishining oqibati haqida o'ylamaydigan tor fikrli odam; ajdaho - markaziy qahramonning antipodi, Ahrimanning avlodi va odamga qarshi; shahar aholisi jangchilar olomonidir, bu esa vaziyatning fojiasini kuchaytiradi; qahramonlarning tarkibi odamlar va hayvonlardir.

Hikoya ohangi odatiy, "Masnaviy"dagi Mavlonoga xos, ya'ni jiddiy, rasmiy va didaktik.

Hikoya turi: ochiqchasiga, chunki unda Xudo yuborgan Musoni onasi dengizga uloqtirgani aytiladi. Hikoyaning shakli aforistik va qisqa bo'lib, unda dahshatli ajdahoning tog'da uchrashishi va ajdaho tomonidan ilon ovchining yutib yuborishi tasvirlangan.

Hikoyaning tasavvufiy ma'nosi shunday: mohiyatan har bir insonda ajdahodek ruh bor. Shaxsning bu ruhga befarqligi, bu ruh odamda ilhomlantiradigan istaklarga qarshilik ko'rsatishi uni uyquga soladi, lekin odamlar uning nafsiga bo'ysunsa, u jonlanadi. Qayta tiklangan ajdahoning birinchi qurboni uni uyg'otgan, ajdahoga mehr ko'rsatgan kishi o'z mehrining qurboniga aylanadi.

Shu munosabat bilan shoir shunday deydi:

Нафсат аждарҳост, ў кай мурдааст?

Аз ғаму беолати афсурдааст. (III daftar, 1053bayt)

O'ylakim, nafsing o'lik ajdar emish,

Chorasizlikdin magar ul muzlamish. (III daftar, 1053bayt)

Hikoya kompozitsiyasi: barcha harakat va hodisalar ma'lum bir mantiqqa amal qiladi: tog'ning sovuq havosida ilon muzlaydi. Ilonni chorasiz qolganini ko'rgan ilon ovchisi uni ermak uchun shaharga olib boradi. Bag'dodning jazirama havosi ilonni jonlantiradi. Jonlangan ajdahoning birinchi qurboni ilon ovchining o'zi bo'ladi.

Bunday holda, belgilar o'rtasida ovozli aloqa yo'q. Shoir tasvirlash orqali muhit yaratadi va keyin antipodlarning xatti-harakati va harakatlarini tasvirlaydi.

Asar muallifining hikmatli qarashi shundan iboratki, nafs ruhi inson ichida uxlayotgan ajdahoga o'xshaydi. Buning uchun tegishli vaziyat paydo bo'lganda, u uyg'onadi va odamni yo'q qiladi.

Ajdahoga xos xususiyatlar asosida yaratilgan timsol va allegoriyalar quyidagicha: qissada ajdaho insonning qalbida o'tirgan va to'g'ri muhitda uyg'onishga tayyor bo'lgan shahvatni ifodalaydi. Iroqning issiq quyoshi mamlakat gullab-yashnashining timsoli bo'lib, ajdaho tanasini o'rab turgan arqonlar - matonat va vazminlik bo'lib, ba'zan odamni tinchlantiradi yoki tushkunlikka soladi va ajdaho ularni sindirishga qodir.

Qadimgi Eron madaniyatida ilon aqlli zararkunandaning eng yomon ramzi va metaforasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ilon Ahrimanning eng kuchli mavjudotlaridan biridir. Mitraik e'tiqodda bu hayvon zardushtiylik tushunchalaridan ma'lum darajada ajralib turadigan ijobiy ramzlardan birini ifodalagan, unga ko'ra ilon zararli Ahriman jonzoatlari sifatida tasniflanadi. Mitra ibodatxonalarining barcha devor rasmlarida "bahor faslida tabiatning tiklanishi" kult marosimi sahnasi takrorlanadi, bunda Mitra buqani yiqitadi. Bu sahnada ilon tuproq (er) timsoli sifatida, hosildor bo'lish uchun yangilanadigan hayot belgisi sifatida buqaning qonini ichishi mavjud. Bugun biz bu ramziylikni har kuni hayot kosasidan ichadigan ilonning tibbiy ramzida ko'ramiz.

Muhokama. Jaloliddin Rumiy "Masnaviy"da ilon timsolini 152 marta ijobiy va salbiy ma'nolarda qayd etgan: boylik ishtiyoqi (3, 782; 5, 1952; 2, 2944, 12358), tayanch et (2, 2528), (1, 775). ; 2, 1878; 6, 3842), buzuqlik, azob (2,154; 2,848; 3,4010), Shayton. (2,257), valiy (2,845), zararli fe'l, azob va qayg'u (2,594-598), ikkiyuzlamachilar (3,3595; 2,230), shahvat (5,517), katta va zich (2,3471), do'zax azobiga loyiq inson (2,3510), zolim (3,1398), xavfli dushman (3,3455), hayajon, tushkunlik (6, 1953), past g'ayrioddiy (5, 301-302), yerdagi hayot va o'tkinchi lazzatlar (3,994-999) va to'la hayot, nozikliklar (2.3465). "Masnaviy"dagi "ilon" so'zi ustiga qurilgan majoziy iboralar, epitetlar, metafora, timsollarning aksariyati shaytonning

xizmatkori bo'lgan qabih inson va "tana ovozi"ning xususiyatlarini yaqqol aks ettiradi, o'zining o'tkir, haqoratli ifodalari bilan begunoh odamlarni ranjitadi, yolg'on va ayyorlik ularni to'g'ri yo'ldan adashtiradi:

II daftarning 2321 baytida shoir
Эй фалак, аз раҳми Ҳақ омӯз раҳм,
Бар дили мӯрон мазан чун мор захм.

Ey falak Haq rahmini ko'r, ayla rahm,
Sen chumoli siynasiga solma zahm.
- deb hayqiradi.

Xulosa. Mavlononing antropomorfik mavzularga murojaati uning tarbiyalovchi yoki axloqiy g'oyalarini oddiy tasvirlashdan ko'ra chuqurroq maqsadni ko'zlagani aniqlandi. Mutafakkirning pirovard maqsadi insonni ratsional mavjudot sifatida tubdan o'zgartirishdir.

ADABIYOTLAR:

1. Мавлоно Чалолуддин Муҳаммади Балхӣ Маснави маънавӣ: Дафтари аввал ва дувум — Душанбе: «Адиб», 2013. - 480 саҳ.
2. Мавлоно Чалолуддин Муҳаммади Балхӣ Маснави маънавӣ: Дафтари сеғум ва чорум — Душанбе: «Адиб», 2013. - 480 саҳ.
3. Мавлоно Чалолуддин Муҳаммади Балхӣ Маснави маънавӣ: Дафтари панҷум ва шашум — Душанбе: «Адиб», 2013. - 480 саҳ.
4. Mavloni Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. Birinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2005.
5. Mavloni Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. Ikkinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002.
6. Mavloni Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. Uchinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent-2003-Tehron.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, Eron Islom Respublikasi «Al-Hudo» xalqaro nashriyoti.
7. Mavloni Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. To'rtinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent-2003-Tehron.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, Eron Islom Respublikasi «Al-Hudo» xalqaro nashriyoti.
8. Mavloni Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. Beshinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Eron Islom Respublikasi «Al-Hudo» xalqaro nashriyoti, Tehron- 2004.
9. Mavloni Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma'naviy. Oltinchi kitob. Forsiydan Jamol Kamol tarjimasi. – Eron Islom Respublikasi «Al-Hudo» xalqaro nashriyoti, Tehron- 2004.
10. Dschaläl ad-Din Rumi. Masnawi. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Erstes Band. Buch I-III. Aus dem persischen von Otto Höschle. Chalice Verlag, Xanten, 2020
11. Dschaläl ad-Din Rumi. Masnawi. Gesamtausgabe in zwei Bänden. Zweites Band. Buch IV-VI. Aus dem persischen von Otto Höschle. Chalice Verlag, Xanten, 2021
12. Tashpulatovich, B. M., & qizi, T. M. S. (2022). The Role of Translation in Intercultural Communication. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(6), 26-31. Retrieved from <https://cajlp.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/374>
13. Babayev Maxmud Tashpulatovich, & Jumayeva Nigina Djamalovna. (2023). Tarjimonlik kasbining dolzarbligi va zamonaviy sharoitda avtomatlashtirilgan tarjimaning xususiyatlari. Innovative development in educational activities, 2(9), 111–115. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7938126>
14. Babayev Maxmud Tashpulatovich. (2023). H.Hessening "shoir" ertagi stilistik xususiyatlari. Innovative development in educational activities, 2(8), 303–309. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7884981>
15. Babayev Maxmud Tashpulatovich, & Ashirova Rayhon Anvar qizi. (2023). Tarjima turlari va ularning xususiyatlari. Innovative development in educational activities, 2(9), 63–69. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7937985>
16. Babayev, O. (2024). Periodische phasen der forschungen von rumis werken in deutscher sprache. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 46(46). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12002
17. Babayev, O. (2023). Персидская литература в странах, говорящих по-немецки. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 40(40). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10688
18. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/sulaymon-rahmon-rumi-va-uning-durdona-asari-manaviy-masnaviy-ning-ozbekcha-tarjimasiga-oid.html>